

O‘zbekiston
Metama’lumot
Sabzavotlarning ekilgan ekin maydoni

Ishlab chiqilgan sana: 31.03.2023

Oxirgi yangilangan sana: 31.03.2023

0. Asoslar

0.1 Qonuniy asoslar

0.1.1 Statistika ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish uchun javobgarlik

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

2021-yil 11-avgustda Sharqiy Yevropa, Kavkaz va Markaziy Osiyo uchun Rasmiy statistika to‘g‘risidagi namunaviy qonunni asosida ishlab chiqilgan “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi.

Ushbu Qonunning maqsadi rasmiy statistika sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonunning amal qilishi rasmiy statistikani tayyorlovchilarga va undan foydalanuvchilarga, respondentlarga hamda ma’muriy ma’lumotlarni yetkazib beruvchilarga, shuningdek ular o‘rtasida yuzaga keladigan, rasmiy statistikani tayyorlash, tarqatish va muvofiqlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlarga nisbatan tatbiq etiladi.

Rasmiy statistika to‘g‘risidagi Qonunning 14-moddasiga muvofiq davlat statistika organlari quyidagi huquqlarga ega:

- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan, banklardan hamda boshqa tashkilotlardan statistika kuzatuv shakllarini olish va statistika kuzatuv ma’lumotlaridan statistika maqsadlarida foydalanish;
- statistik birliklar faoliyatining statistika kuzatuvlarini o‘tkazish va olingan birlamchi ma’lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish;
- jismoniy shaxs bo‘lgan respondentlarni statistika kuzatuvlarida ishtirok etganligi uchun rag‘batlantirishni amalga oshirish;
- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, shuningdek boshqa tashkilotlardan statistika dasturlarini bajarish uchun zarur bo‘lgan axborotni so‘rash hamda olish;
- rasmiy statistikani tayyorlash uchun zarur bo‘lgan statistika ma’lumotlarini yig‘ishga jismoniy va yuridik shaxslarni qonunchilikka muvofiq shartnoma asosida jalb etish;
- statistika ma’lumotlarini yig‘ish, ularga ishlov berish, ularni umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlashning zamonaviy usullari va vositalaridan foydalanish hamda ularni milliy statistika tizimiga joriy etish;
- statistika ma’lumotlarini taqdim etish bilan bog‘liq qoidabuzarliklar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish haqida ko‘rsatmalar berish va statistika ma’lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritish;
- statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzgan mansabdor shaxslarga nisbatan ma’muriy jazo choralarini qonunga muvofiq o‘z vakolatlari doirasida qo‘llash.

2017-yil 12-sentabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining F-5054-son farmoyishiga muvofiq, mamlakatdagi iqtisodiy va moliyaviy ma’lumotlar Xalqaro Valyuta Fondining kengaytirilgan umumiy ma’lumotlar tarqatish tizimi (k-MTUT)ga to‘g‘ri kelishi va uning doirasida muvofiqlashtirilishi kerak.

0.1.2 Ma’lumot ishlab chiqaruvchi tashkilotlar o‘rtasida ma’lumotlar almashinuvi va muvofiqlashtirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 11-moddasiga asosan rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma’lumotlarini ishlab chiqishda xalqaro darajada tavsiya etiladigan tushunchalarga, tasniflarga va uslubiyatga amal qiladi.

Vakolatli davlat organi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining faoliyatini statistika dasturlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma’lumotlarini tayyorlash uslubiyatini o‘z vakolatlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining statistika uslubiyatlarida xalqaro tavsiyalarga nomuvofiqlik aniqlangan taqdirda vakolatli davlat organi statistika uslubiyatlari auditi yakunlariga ko‘ra ushbu tayyorlovchilarga ijro etilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalar kiritish huquqiga ega.

Milliy statistika tizimiga kiruvchi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari tomonidan statistika ma’lumotlarini shakllantirish va vakolatli davlat organi bilan axborot almashinuvini ta’minlash uchun mas’ul bo‘lgan bo‘linmalar tashkil etiladi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar hamda ma’muriy ma’lumotlarni yetkazib beruvchilar o‘zlarida mavjud bo‘lgan statistika ma’lumotlarini va (yoki) ma’muriy ma’lumotlarni vakolatli davlat organiga statistika dasturlarida belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etadi.

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasiga asosan, Statistika kengashi vakolatli davlat organi huzuridagi rasmiy statistikaning rivojlantirilishi, faoliyat ko‘rsatishi va muvofiqlashtirilishi masalalari bo‘yicha kollegial maslahat organidir.

Statistika kengashining tarkibi davlat boshqaruvi organlarining, ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining vakillari, shuningdek statistika bo‘yicha milliy ekspertlar orasidan tuziladi.

0.1.3 Respondentlar individual ma’lumotlarining maxfiyligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 27-moddasiga asosan, rasmiy statistikani tayyorlovchilar tasarrufidagi mavjud individual ma’lumotlardan faqat statistika maqsadlarida, jamlanma statistika ma’lumotlarini shakllantirish uchun foydalaniladi.

Davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar, shu jumladan xalqaro tashkilotlar tomonidan individual ma’lumotlardan tergov, nazorat qilish, sud muhokamasi, ma’muriy qarorlar qabul qilish maqsadida yoki jismoniy va yuridik shaxslarga yoki uy xo‘jaliklariga taalluqli boshqa maqsadlarda foydalanilishi mumkin emas.

Statistika agentligi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik prinsiplariga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday individual ma'lumotlarni oshkor qilmasliklari kerak.

Ularni lavozimga tayinlash paytida majburiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Statistika agentligining har bir xodimi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini o'z ichiga olgan shartnomaga qo'l qo'yishi shart.

0.1.4 Statistika hisobotlarni taqdim etish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 14-moddasiga asosan, davlat statistika organlari davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan, banklardan hamda boshqa tashkilotlardan statistika kuzatuv shakllarini olish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi [kodeksining](#) 215-moddasiga muvofiq mansabdor shaxslarning statistika kuzatuvini olib borish uchun zarur bo'lgan hisobot va boshqa ma'lumotlarni taqdim etmaslikda ifodalangan statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzishi, hisobot ma'lumotlarini buzib ko'rsatishi yoki hisobotlarni taqdim etish muddatlarini buzishi bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 16-moddasiga asosan, Statistika dasturlariga binoan statistika kuzatuvlarini o'tkazish chog'ida respondentlar rasmiy statistikani tayyorlovchilarga ishonchli va to'liq ma'lumotlarni rasmiy statistikani tayyorlovchi tomonidan belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etishi shart.

0.2 Resurslar

0.2.1 Kadrlar, moddiy-texnika bazasi, kompyuter vositalari va moliyalashtirish

Markaziy apparatda sabzavotlarning ekilgan ekin maydoni to'g'risidagi axborotlarni shakllantirish ishlari 1 nafar, hududiy statistika boshqarmalarida – 1 nafar, tuman, shahar statistika bo'limlarida 1 nafar xodim tomonidan amalga oshiriladi.

Umuman sabzavotlarning ekilgan ekin maydoni to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish uchun qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun xodimlar soni yetarli va xodimlar mos ko'nikmalarni saqlash va rivojlantirish uchun qo'yilgan vazifalarni bajarishga layoqatli. Barcha xodimlar iqtisodiyot va qishloq xo'jaligi sohasida oliy ma'lumotga ega.

Ko'nikmalarni qo'llab quvvatlash va rivojlantirish muntazam ravishda mutaxassislar uchun Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti taklif etiladigan kurslarda xodimlarni o'qitishga asoslangan.

Boshqarma yetarli miqdordagi kompyuterlarga ega bo'lib, har bir xodim alohida o'zlariga biriktirib berilgan, lokal tarmoqqa ulangan, muntazam ravishda dasturiy ta'minot yangilanib turadigan kompyuterlarda ishlaydi.

Berilayotgan moliyaviy manbalar Statistika dasturida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun yetarli.

1. Beg‘arazlik

1.1 Kasbiy mahorat

1.1.1 Statistikaning xolisligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan, rasmiy statistikasining asosiy prinsiplari, jumladan beg‘arazlik va xolislik hisoblanadi.

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunining 13-moddasiga asosan, Davlat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari davlat statistika organlarining ushbu Qonunga muvofiq amalga oshirilayotgan faoliyatiga aralashishga haqli emas.

Hududiy statistika boshqarmalari, tumanlarning (shaharlarning) statistika bo‘limlari mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqil bo‘lib, bevosita vakolatli davlat organiga bo‘ysunadi.

Mazkur statistik ma‘lumotni ishlab chiqishda boshqa davlat organlarining aralashishiga yo‘l qo‘yilmagan va kasbiy mustaqillik to‘liq ta‘minlangan.

Kadrlarni tanlab olish va ularni yuqori lavozimlarga tayinlashda, ularning statistika sohasida tajribasi va kasbiy malakasi e‘tiborga olinadi. Boshqarma xodimlari malakasini oshirish O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti tomonidan tashkil etiladigan o‘quv kurslarida hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkil etiladigan o‘quv kurslari, o‘quv-amaliy seminarlarda ishtirokini ta‘minlash orqali ta‘minlanadi. Boshqarma xodimlari Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida tashkil etilgan o‘quv kurslarida ma‘ruzalar bilan ishtirok etadi. Ommaviy axborot vositalarida Boshqarma xodimlarining ilmiy maqolalarini e‘lon qilib borish tashkil etilgan.

1.1.2 Manbalar, uslublar va tarqatish usullarini tanlash

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 33-moddasiga muvofiq:

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini doimiy asosda baholab boradi. Sifat kafolatini ta‘minlash uchun rasmiy statistika rasmiy statistikaning qamrovi, tushunchalari, statistik birliklari va tasniflariga taalluqli umumiy prinsiplar hamda usullar asosida tayyorlanadi va tarqatiladi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini yaxshilash maqsadida ma‘lumotlarni tahlil etish va tahrir qilish, turli manbalardan olingan ma‘lumotlarni birlashtirish, ma‘lumotlarni statistika maqsadlarida bir-biriga bog‘lashni va solishtirishni amalga oshirish hamda baholashning statistik usullaridan foydalanish huquqiga ega.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar tayyorlash jarayonida foydalaniladigan manbalar va usullarni, shuningdek yakuniy ma‘lumotlar to‘plamlarini hujjatlashtirib boradi. Rasmiy statistikadan foydalanuvchilar statistika ma‘lumotlarining manbalari va ularni tayyorlash usullari hamda rasmiy statistika ma‘lumotlarining sifati to‘g‘risida metama‘lumotlar yordamida xabardor qilinadi.

1.1.3 Statistika ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish yoki undan noto'g'ri foydalanish bo'yicha sharh

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Statistika agentligi statistik ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish va statistik ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanilganda o'z izohini berishi mumkin.

1.2 Shaffoflik

1.2.1 Statistika ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish qoidalari va tartibining oshkoraligi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunning 6-moddasiga binoan, rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari tushunarlik va shaffoflik. Statistika ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish bo'yicha shartlar O'zbekiston Respublikasining statistika qonun hujjatlarida keltirilgan. Ushbu qonunchilik choralari veb-saytga joylashtirilgan va jamoatchilikni ular bilan tanishish imkoniyati mavjud. “Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonun va statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish va tarqatish muddatlari aniq ko'rsatilgan statistika dasturi Statistika agentligi rasmiy veb-saytiga (www.stat.uz) joylashtirilgan. Qonun Oliy Majlis byulletenida, normativ-huquqiy hujjatlar bazasi (norma), shuningdek Adliya vazirligining www.lex.uz manzilida joylashgan ma'lumotlar bazasida ham mavjud. Statistika ma'lumotlarni shakllantirish uchun respondentlar tomonidan taqdim etiladigan statistika hisoboti shakllari Statistika agentligi rasmiy veb-saytida foydalanuvchilar uchun oldindan e'lon qilinadi.

1.2.2 Hukumatning statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ko'rishning ichki imkoniyati

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Hukumat Statistika agentligi tomonidan tayyorlangan statistik ma'lumotlarni ularni e'lon qilish vaqtidan oldin ko'rish imkoniyatiga ega emas. Statistika ma'lumotlarni tarqatishda davlat statistika organlari mustaqildir. Davlat organlarining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi (“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunning 13-moddasi). Faqat Agentlik direktori, uning o'rinbosarlari va mas'ul xodimlar statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ularni ko'ra oladi.

1.2.3 Statistika ma'lumotlarning atributlari (belgilari)

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Jamoatchilikka e'lon qilinayotgan bosma statistik nashrlar, axborotnomalar, ommaviy axborot vositalarida berilayotgan ma'lumotlarning Statistika agentligi tomonidan ishlab chiqilganligi uning logotipi va izohlari orqali aniq belgilanadi.

1.2.4 Uslubiyatlar, ma'lumotlar manbasi va statistik usullardagi asosiy o'zgarishlar haqida oldindan xabardor qilish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Yangi uslubiyatga o'tishdan, mavjud uslubiyatlar va usullarga sezilarli o'zgartirishlar kiritishdan oldin Statistika agentligi jamoatchilikni oldindan xabardor qiladi. Statistika agentligi o'z rasmiy veb-saytida foydalanuvchilarni qanday o'zgarishlar kutayotganini tushuntiruvchi tegishli uslubiy ko'rsatmalarni joylashtiradi. Maqolalar, yangiliklar va matbuot anjumanlarida kutilayotgan o'zgarishlar jamoatchilikka yetkaziladi.

1.3. Axloq me'yorlari

1.3.1 Xodimlarning axloq me'yorlari bo'yicha ko'rsatmalar

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Statistika agentligi xodimlari uchun Odob-axloq qoidalari tasdiqlangan. Ular axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik prinsipiga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma'lumotlarni oshkor qilmasligi kerak. Ular lavozimga tayinlanayotganda ushbu majburiyatlar haqida tushuntirishlar beriladi. Statistika agentligi xodimi individual ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini olgan shartnoma tuzishi shart.

2. Uslubiyat

2.1 Konsepsiya va tushunchalar

2.1.1 Konsepsiya va tushunchalar

Sabzavotlarning ekilgan ekin maydoni to'g'risida ma'lumotlarni shakllantirish va aniqlash uchun 1-fx shakli (yillik) hamda 4-fx (choraklik) "Fermer xo'jaligi faoliyati to'g'risida hisobot", 4-dx shakli (choraklik) "Dehqon va tomorqa xo'jaliklari faoliyati to'g'risida hisobot", 1-qx shakli (yillik) va 4-qx shakli (choraklik) "Qishloq xo'jaligi faoliyati to'g'risida hisobot", 1-kb shakliga ilova (qx) (yillik) "Mikrofirma va kichik korxonaning qishloq xo'jaligi faoliyati to'g'risida hisobot" statistika hisobotlari statistik axborotlaridan foydalaniladi hamda ushbu ko'rsatkich quyida keltirilgan hisobotlarda geklarda ko'rsatiladi.

2.2 Statistik qamrov

2.2.1 Statistik qamrov

2.2.1.1 Ma'lumotlarning statistik qamrovi

Ma'lumotlarning geografik qamrovi Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahrini o'z ichiga oladi.

Xo'jaliklar qamrovi: fermer, dehqon va tomorqa xo'jaliklari, yirik, kichik korxonalar va mikrofirmalar.

Sabzavotlarning ekilgan ekin maydoni turlari bo'yicha qamrov: qishloq xo'jaligi bo'yicha statistika hisobotlarida keltirilgan.

2.2.1.2 Statistik qamrovdan istisnolar

Istisno yo'q.

2.2.1.3 Aniqlanmagan faoliyat

Mavjud emas.

2.3 Tasniflash/sectorlar bo'yicha taqsimlash

2.3.1 Tasniflash/sectorlar bo'yicha taqsimlash

Mavjud emas

2.4 Hisobga olish asoslari

2.4.1 Baholash

Sabzavotlarning ekilgan ekin maydoni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan topshiriladigan statistika hisobotlar ma'lumotlariga asosan shakllantiriladi.

2.4.2 Hisobga olish asosi

Sabzavotlarning ekilgan ekin maydoni to'g'risidagi ma'lumotlar statistika organlariga yuridik shaxslar, mahalla fuqarolar yig'inlari tomonidan topshiriladigan statistika hisobotlar ma'lumotlari asosida shakllantiriladi.

2.4.3 Yalpi/sof ko'rsatkichlarni hisoblash tartib-taomillari

3. Aniqlilik va ishonchlik

3.1 Birlamchi ma'lumotlar

3.1.1 Birlamchi ma'lumotlarni yig'ish asoslari

Sabzavotlarning ekilgan ekin maydoni to'g'risidagi ma'lumotlarning shakllantirilishi uchun axborotlar manbai qishloq xo'jaligi bo'yicha mos birlamchi statistika hisobotlari ma'lumotlari hisoblanadi.

Sabzavotlarning ekilgan ekin maydoni to'g'risidagi ma'lumotlar fermer, dehqon va tomorqa xo'jaliklari, yirik, kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun statistika hisobotlari asosida 1 iyul va 1 yanvar holatiga va yillik ma'lumotlar shakllantiriladi.

3.1.2 Birlamchi ma'lumotlarning ta'rifi, qamrovi, tasniflari, baholanishi va hisobga olish davri

Sabzavotlarning ekilgan ekin maydoni to'g'risidagi statistik ma'lumotlar fermer xo'jaliklari, mahalla fuqarolar yig'inlari, yirik, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan davlat statistikasi organlariga taqdim etiladi.

3.1.3 Birlamchi ma'lumotlarning o'z vaqtida tayyor bo'lishi

Axborotlarni tayyorlash qat'iy ravishda Statistika dasturida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

1 iyul va 1 yanvar holatiga ma'lumotlar 20 kundan, yillik ma'lumotlar 3 oydan ko'p bo'lmagan hisobot davridan keyin qayta ishlanadi.

3.2 Birlamchi ma'lumotlarni baholash

3.2.1 Birlamchi ma'lumotlarni baholash

Subyektlardan olingan ma'lumotlar nafaqat hududiy statistika boshqarmalari darajasida, balki Agentlikda muqarrar nazorat va tekshiruvlardan o'tadi. Axborotlarda xatoliklar aniqlangan hollarda albatta subyektlar bilan aniqlik kiritiladi.

3.3 Statistik usullar

3.3.1 Birlamchi ma'lumotlar bilan ishlashda statistik usullar

Birlamchi ma'lumotlar bilan ishlash O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuniga hamda O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida" Qonuniga muvofiq amalga oshiriladi.

3.3.2 Boshqa statistik jarayonlar

Ma'lumotlarga tuzatish kiritish va qayta ishlash asoslangan usullar yordamida amalga oshiriladi. Yakuniy ma'lumotlarni shakllantirishdan oldin dastlabki ma'lumotlarga tuzatishlar kiritiladi.

3.4 Ma'lumotlarni taqqoslash

3.4.1 Oraliq natijalarni taqqoslash

Sabzavotlarning ekilgan ekin maydoni to'g'risidagi ma'lumotlar o'tgan yil ma'lumotlari bilan solishtiriladi.

3.4.2 Oraliq ma'lumotlarni baholash

Sabzavotlarning ekilgan ekin maydoni to'g'risidagi ma'lumotlar o'tgan yil ma'lumotlari bilan solishtiriladi.

3.4.3 Yakuniy statistik ma'lumotlardagi tafovutlar va boshqa nomuvofiqliklarni o'rganish

Chiquvchi statistik ma'lumotlardagi farqlar o'rganiladi, hisobot davridagi ma'lumotlarni o'tgan davr va yil natijalari bilan solishtiriladi, jiddiy farqlar sabablari aniqlanadi va tahlil qilinadi.

3.5 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish tahlili

3.5.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish

1 iyul va 1 yanvar holatiga va yillik hisobot ma'lumotlari qayta ishlanadi, tahlil qilinadi, umumlashtiriladi, zarur hollarda subyektlar bilan aniqlik kiritiladi va 1 iyul va 1 yanvar holatiga ma'lumotlar 20 kundan hamda yillik ma'lumotlar - 3 oydan ko'p bo'lmagan hisobot davridan keyin rasmiy ravishda chop etiladi.

4. Amaliy yaroqlilik

4.1 Davriylik va o'z vaqtidaligi

4.1.1 Davriylik

Sabzavotlarning ekilgan ekin maydoni to'g'risidagi ma'lumotlar yilda uch marta: 1 iyul va 1 yanvar holatiga va yillik davriylik bilan shakllantiriladi.

4.1.2 O'z vaqtidaligi

Sabzavotlarning ekilgan ekin maydoni to'g'risidagi choraklik ma'lumotlar Statistika dasturida belgilangan muddatlarda, hisobot davridan keyingi 20 kundan ko'p bo'lmagan davrda hamda yillik ma'lumotlar - hisobot davridan keyingi 3 oydan kechiktirmasdan chop etiladi.

4.2 Qiyosiylik

4.2.1 Ichki qiyosiylik

Statistik ma'lumotlar ichki kelishilishi, vaqt bilan taqqoslanilishi bilan tavsiflanadi.

4.2.2 Vaqt bo'yicha qiyosiylik

Yetarli davrlar uchun ma'lumotlarning vaqt bilan qiyosiy davriy qatorlari mavjud. Sabzavotlarning ekilgan ekin maydoni to'g'risidagi dinamikalar 2010 yildan boshlab shakllantiriladi.

4.2.3 Sektorlar va sohalar o'rtasidagi qiyosiylik

Mavjud emas.

4.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish

4.3.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish jadvali

Sabzavotlarning ekilgan ekin maydoni to'g'risidagi statistik axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, to'plash, saqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va chop etish Statistika dasturida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

4.3.2 Dastlabki va/yoki qayta ko‘rib chiqilgan ma’lumotlarni aynan shu toifasi bo‘yicha belgilash

Ma’lumotlarni tarqatish vaqtida foydalanuvchilarga ma’lumotlarning dastlabki ekanligi ma’lum qilinadi.

Dastlabki ma’lumotlar nashr etilayotganda tegishli izohlar yoziladi.

4.3.3 Ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqishni o‘rganish va tahlil qilish bo‘yicha olingan natijalarni tarqatish

Ko‘rilayotgan ma’lumotlarning o‘tgan davrlar ko‘rsatkichlari bilan taqqoslanganligi tahlil qilinadi, bu esa ma’lumotlarning ishonchligini baholash imkonini beradi.

Sabzavotlarning ekilgan ekin maydoni to‘g‘risidagi dastlabki ma’lumotlar va yakuniy ma’lumotlar statistik byulleten, statistik jadval va to‘plamlar ko‘rinishida tarqatiladi.

5. Qulayligi

5.1 Ma’lumotlar

5.1.1 Statistik ma’lumotlarni taqdim etish

Sabzavotlarning ekilgan ekin maydoni to‘g‘risidagi dastlabki ma’lumotlar statistik jadval, byulletenlar, shuningdek, yakuniy ma’lumotlar statistik byulleten, jadvallar, to‘plamlar ko‘rinishida foydalanuvchilarga tarqatiladi hamda Ochiq ma’lumotlar portali va siat.stat.uz veb-saytga joylashtiriladi.

5.1.2 Ma’lumotlarni tarqatish vositalari va shakllari

5.1.2.1 Bosma shaklda – Yangi nashr

Statistik ma’lumotlar chop etilgan shaklda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining nashrlari orqali tarqatiladi:

- “O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi”;

- “O‘zbekiston raqamlarda”.

Bundan tashqari, statistik ma’lumotlar foydalanuvchilarning so‘roviga ko‘ra taqdim etiladi.

5.1.2.2 Bosma shaklda – Oylik byulletenlar

Mavjud emas.

5.1.2.3 Bosma shaklida – Choraklik byulletenlar

“Qishloq xo‘jaligi ekinlarining ekin maydoni, bog‘lar, uzumzorlar maydoni, yalpi hosil va hosildorlik statistik byulleteni” (dastlabki ma’lumotlar, 1 iyul, 1 yanvar holatiga).

5.1.2.4 Bosma shaklda – Yillik byulletenlar

“Qishloq xo‘jaligi ekinlarining ekin maydoni, bog‘lar, uzumzorlar maydoni, yalpi hosil va hosildorlik statistik byulleteni”.

5.1.2.5 Bosma shaklda – Boshqalar

Jadvallar, foydalanuvchilarning so‘rovlariga asosan.

5.1.2.6 Elektron shaklda - Byulleten yoki nashrlar

Sabzavotlarning ekilgan ekin maydoni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 9- apreldagi PQ-4273-son qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi ochiq axborotlar portaliga joylashtirilgan.

Sabzavotlarning ekilgan ekin maydoni ma‘lumotlar elektron statistik jadvallar, byulletenlar ko‘rinishida, yillik ma‘lumotlar byulleten, jadvallar va to‘plamlar ko‘rinishida davlat boshqaruvi organlari va boshqa foydalanuvchilarga taqdim etiladi, shuningdek Ochiq ma‘lumotlar portali va siat.stat.uz veb-saytga veb-saytda joylashtiriladi.

5.1.3. Ma‘lumotlarni e‘lon qilish jadvali

Sabzavotlarning ekilgan ekin maydoni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar Statistika dasturida belgilangan muddatlarga muvofiq shakllantiriladi.

5.1.4 Bir vaqtning o‘zida e‘lon qilish

Agentlikning rasmiy nashrlarida statistik ma‘lumotlarni tayyorlash uchun mas‘ul xodimlar bilan muloqot qilish uchun manzillar (pochta, telefon, faks, elektron pochta va boshqalar) ko‘rsatilgan.

5.1.5 So‘rov bo‘yicha ma‘lumotlarni tarqatish

O‘zbekiston Respublikasi “Rasmiy statistikasi to‘g‘risida”gi Qonunga, statistik ma‘lumotlarni tayyorlash va taqdim etish ishlarini tashkil etish Reglamentiga va boshqa me‘yoriy hujjatlarga statistik ma‘lumotlar foydalanuvchilarning so‘roviga asosan belgilangan tartibda taqdim etiladi. Statistik axborotlarni tarqatish yuridik va jismoniy shaxslarning yozma murojaatlariga asosan taqdim etish yo‘li bilan chop etilgan yoki elektron jadvallar, statistik to‘plamlar, byulletenlar, ekspress-axborotlar ko‘rinishida, hamda tomonlarning axborot almashinuv to‘g‘risidagi kelishuviga asosan taqdim etiladi.

5.2 Metama‘lumotlar

5.2.1 Konsepsiyalar, statistik qamrov, tasniflar, hisobga olish asoslari, ma‘lumotlar manbasi va statistik usullar to‘g‘risidagi hujjatlar va ma‘lumotlarni tarqatish

Bitimlar, statistik qamrov, tasniflar, hisoblar asoslari, ma‘lumotlar manbai va statistik uslublar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar statistik to‘plamlarda asosiy ko‘rsatkichlarga uslubiy tushuntirish ko‘rinishida aks ettiriladi.

5.3. Foydalanuvchilarga yordam ko'rsatish

5.3.1 Aloqa bog'lash bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish

Agentlikning rasmiy nashrlarida statistik ma'lumotlarni tayyorlash uchun mas'ul xodimlar bilan muloqot qilish uchun manzillar (pochta, telefon, faks, elektron pochta va boshqalar) ko'rsatilgan. Shuningdek, Agentlikning rasmiy veb-saytida markaziy apparatning aloqa uchun telefonlari joylashtirilgan: <https://stat.uz/uz/haqida/markaziy-apparat>.

9. Rejalar

9.1 Oxirgi

9.1.1 Takomillashtirish rejasi – Oxirgi takomillashtirishlar

Qishloq xo'jaligi bo'yicha statistika kuzatuvlari shakllari takomillashtirildi.

9.2 Umumiy

9.2.1 Takomillashtirish rejasi – Qisqa muddatli

Qishloq xo'jaligi bo'yicha statistika kuzatuvlari shakllarini takomillashtirish.

9.2.2 Takomillashtirish rejasi – O'rta muddatli

O'zbekiston Respublikasining Ochiq ma'lumotlar portali va siat.stat.uz veb-saytga joylashtirish uchun sabzavotlar ekilgan ekin maydon to'g'risidagi ma'lumotlarni tayyorlash.

9.3 Moliyaviy

9.3.1 Takomillashtirish rejasi – texnik/moliyaviy ko'makka talab – Qisqa muddatli

Moliyalashtirish Statistika dasturlari doirasida ta'minlangan.

9.3.2 Takomillashtirish rejasi - texnik/moliyaviy ko'makka talab – O'rta muddatli

Moliyalashtirish Statistika dasturlari doirasida ta'minlangan.

Aloqa bog'lash uchun shaxs (shaxslar):

| | |
|--|---|
| F.I.O.: | G'ulomov Shovkat |
| Lavozim: | Boshqarma boshlig'i |
| Bo'linma: | Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi boshqarmasi |
| Idora: | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi |
| Manzil: | Mustaqillik shoh ko'chasi, 63-uy |
| Shahar/region: | Toshkent shahri |
| Mamlakat: | O'zbekiston Respublikasi |
| Pochta indeksi: | 100170 |
| Telefon: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam | 998 71 202-80-51 |
| Faks: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam | |
| Elektron manzil: | selhoz@stat.uz |